

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH
VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDA TUZILGAN
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

HAQNAZAROVA NILUFAR KURANBOYEVNA

**TA'LIM TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA PEDAGOG
KADRLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHI PEDAGOGIK
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Pedagogika fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Содержание автореферата докторской диссертации
по педагогическим наукам**

**Contents of the doctoral dissertation (Doctor of Science)
in pedagogical sciences**

Haqnazarova Nilufar Kuranboyevna

Ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi pedagogik tizimini takomillashtirish..... 3

Хакназарова Нилуфар Куранбоевна

Совершенствование педагогической системы непрерывного профессионального развития педагогических кадров в условиях трансформации образования..... 31

Haknazarova Nilufar Kuranboevna

Improvement of the pedagogical system for continuous professional development of pedagogical staff in the context of educational transformation..... 63

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 68

**OLIV TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH
VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDA TUZILGAN
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
OLIV TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

HAQNAZAROVA NILUFAR KURANBOYEVNA

**TA'LIM TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA PEDAGOG
KADRLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHI PEDAGOGIK
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar ta

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.DSc/Ped946 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.bimm.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Begimkulov Uzokboy Shoimkulovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Sharipova Dilyara Djumaniyozovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Abdullayeva Barno Sayfutdinovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Tojiboyeva Hilola Maxmutovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 raqamli Ilmiy Kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil "30" 04 soat 1439 daqiqa dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 202-01-20, faks: (+99871) 202-01-21; e-mail: info@bimm.uz).

Dissertatsiya bilan Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (32 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 202-01-20, faks: (+99871) 202-01-21; e-mail: info@bimm.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "15" 04 kuni tarqatildi.
(2026-yil 15.04 daqiqa 5-raqamli reyestr bayonnomasi).



Sh.Q.Mardonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, p.f.d., professor

D.A.Mustafoyeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash kotibi, p.f.d. (DSc), dotsent

F.R.Yuzlikayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahondagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, globallashtirish jarayonlari va axborotlashgan jamiyatga tez o'tish ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalar va chaqiriqlarni qo'yimoqda. Bunday sharoitda ta'lim nafaqat zamonaviy bilimlarni sifatli berishi, balki mutaxassislarni butun umr davomida o'qishga va doimiy kasbiy rivojlanishga tayyorlashi zarur. Shu sababli pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligiga bo'lgan talablar ortib bormoqda. Oliy ta'limdan keyingi pedagogik tayyorlov jarayonida pedagogning kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish, fan va texnikadagi global innovatsiyalar sharoitida ularning uzluksiz kasbiy o'sishga tayyorligini ta'minlash dolzarb masala hisoblanadi.

Dunyo ta'lim tizimi hamda YUNESKONing ustuvor vazifalaridan biri oliy ta'limdan keyingi ta'limni rivojlantirish, doimiy ravishda takomillashtirish, shart-sharoitlarni ta'minlash, har bir pedagog kadr uchun umumiy va kasbiy kompetensiyalarni doimiy ravishda yangilab borish va chuqurlashtirishga yordam berishdan iborat. Pedagoglik kasbiga yuqori malakali, mobil, doimiy ravishda uzluksiz tayyorgarlikni talab qiluvchi va hamkorlikka asoslangan kasb sifatida qaraladi. Shu munosabat bilan, oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimida innovatsion fikrlaydigan, butun umri davomida o'zini-o'zi rivojlantirish uchun zarur bo'lgan motivatsiyaga ega bo'lgan pedagog kadrlarni tayyorlash asosiy vazifa hisoblanadi¹.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini transformasiya qilish va pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanishini ta'minlash ustuvor yo'nalishlardan biridir. Ta'lim transformasiyasi sharoitida pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi uchun keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"²da uzluksiz malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimlarini joriy etishning me'yoriy-huquqiy va o'quv-metodik asoslarini takomillashtirib borish, bu borada masofaviy ta'lim imkoniyatlaridan keng foydalanish belgilangan hamda davlat siyosati asosida pedagoglarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi rivojlantirilmoqda, masofaviy va gibridd ta'lim imkoniyatlari kengaytirilmoqda, pedagoglarning raqamli kompetensiyalari va IT-savodxonligini oshirishga qaratilgan loyihalar joriy etilmoqda, xalqaro tajriba va hamkorlik doirasida pedagoglar malakasini oshirish imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Bu o'zgarishlar O'zbekiston ta'lim tizimini xalqaro standartlarga muvofiq rivojlantirish va pedagog kadrlarning kasbiy darajasini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli, 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagi PF-5789-sonli Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risidagi Farmoni.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi.

PF-60-sonli, 2023-yil 28-fevraldagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-27-sonli Farmonlari, 2024-yil 2-fevraldagi “Ta‘lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-54-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi “Oliy ta‘lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 415-sonli qarori hamda ushbu sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotlarning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlari U.Sh.Begimkulov, Ya.U.Ismadiyarov, M.B.Matnazarova, T.T.Shoymardonov, Sh.M.Adashboyev va boshqalar tomonidan pedagog kadrlar tayyorlashni takomillashtirish masalalari bo‘yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilgan, pedagog kadrlar malakasini oshirish jarayonlarini tashkil etishda shaxsga yo‘naltirilgan innovatsion yondashuv nuqtayi nazaridan tavsiyalar tayyorlangan, oliy pedagogik ta‘lim tizimi menejmenti, o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini innovatsion rivojlantirish menejmenti modellari takomillashtirilgan.

MDH olimlaridan Ye.Yu.Buxtiarova, T.G.Vezirov, A.A.Kovshova, S.M.Ziryanova, A.A.Pecherkina va boshqalar tomonidan pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishning metodologik asoslari, pedagogik ta‘limni axborotlashtirish sharoitida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan, pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanishi bo‘yicha tavsiyalar tayyorlangan. V.P.Pilyavskiy, D.D.Sinitsina, V.A.Tixonov, D.S.Shalina, N.G.Yakovleva va boshqalar tomonidan zamonaviy ta‘limning transformatsion jarayonlari, mehnat bozoridagi noaniqlik va talablarning kuchayishi sharoitida ta‘lim tizimining transformatsiyasi, pedagog kadrlar uchun sodir bo‘layotgan transformatsiyalarning xususiyatlari, roli va ahamiyati tadqiq etilgan.

Xorijiy olimlar M.Fullan, A.Hargreaves, L.Darling-Hammond, P.Sahlberg, Sugata Mitra va boshqalar tomonidan ta‘lim tizimlarida muvaffaqiyatli transformatsiyalarni amalga oshirish strategiyalari, ta‘lim siyosati, pedagoglarni rivojlantirish va ta‘limdagi o‘zgarishlar, ularni tayyorlash hamda ta‘lim tizimining transformatsiyasi, rivojlanishiga oid bir qancha tadqiqotlar olib borganlar.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Oliy ta‘lim tizimi kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining IL 4821191576 “Masofaviy texnologiyalar asosida malaka oshirish tizimida o‘quv faoliyatini tashkil qilish” mavzusidagi qo‘shma O‘zbek-Belarus amaliy loyihasi doirasida (2022-2024 yy.) bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi uchun zarur tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash hamda malaka oshirish dasturlariga moslashtirish;

oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi modelni ishlab chiqish;

ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi dinamik pedagogik tizimni takomillashtirish;

pedagogik tizim samaradorligini baholash uchun neyropedagogik kuzatuv va adaptiv monitoring asosidagi diagnostika mexanizmini ishlab chiqish;

pedagoglarning kreativ fikrlashi, muammoni hal etish va tezkor moslashuv ko'nikmalarini rivojlantiruvchi maxsus o'quv modulini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni olingan bo'lib, dissertatsiya tadqiqotida Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti hamda BuxDU, FarDU huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazlarining jami 588 nafar tinglovchilari ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligining tarkibiy komponentlarini rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy adabiyotlar tahlili, ekspert baholash, so'rovnoma, matematik-statistik ishlov berish va eksperiment natijalarini tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan. Tadqiqotda quyidagi usullar qo'llanildi: "Ta'lim transformatsiyasi sharoitida zamonaviy pedagog kadrlar kasbiy kompetentligining tarkibiy qismlarini tadqiq etish bo'yicha ekspert so'rovnomasi", "Ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini o'rganish so'rovnomasi", "Ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini o'rganish bo'yicha ekspert so'rovnomasi".

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishining tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari raqamli va an'anaviy ta'limni uyg'unlashtirish, kasbiy rivojlanishni individual va refleksiv yondashuvlar asosida tashkil etish hamda malaka oshirish jarayonlarini adaptiv boshqarish orqali pedagoglarning kasbiy o'sish samaradorligiga ta'sir etuvchi subyektiv va obyektiv omillar uyg'unligini ta'minlash asosida aniqlangan;

oliy ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan tarkibiy-funksional modeli kompetensiyaviy, kognitiv-metapredmet va aksiologik mezonlar mazmunining vertikal (rivojlanish bosqichlari) va gorizontalar (fanlararo va faoliyatlararo) komponentlar bilan o'zaro

ichki aloqadorligini ta'minlash, shuningdek kasbiy faoliyat natijalari bilan uzviy bog'lash asosida takomillashtirilgan;

ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayoni reflektiv faoliyat, o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy moslashuvchanlik imkoniyatlarini faollashtiruvchi omillarni bosqichma-bosqich integratsiyalash orqali kasbiy o'sish trajektoriyalarini individuallashtirishga xizmat qiluvchi dinamik rivojlanish mexanizmi sifatida takomillashtirilgan;

pedagog kadrlarning kasbiy faoliyati samaradorligini baholashning diagnostik mexanizmlari neyropedagogik kuzatuv, adaptiv monitoring hamda kasbiy faoliyat natijalarini ta'lim sifati ko'rsatkichlari bilan bog'lovchi integrallashgan baholash mezonlarining mazmuni va funksional imkoniyatlarini kengaytirish asosida takomillashtirilgan;

pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning metodik ta'minoti kreativ fikrlash, muammoni hal etish, reflektiv faoliyat va kasbiy faoliyatning zamonaviy talablariga tezkor moslashish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan adaptiv ta'lim texnologiyalariga asoslangan maxsus o'quv modulini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligining qadriyatli-motivatsion, tashkiliy-normativ, axborot-faoliyatli, shaxsiy-reflektiv tarkibiy qismlarini nazarda tutuvchi dolzarb tuzilmasi ajratib ko'rsatilgan;

transformatsiya sharoitida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning tarkibiy-funksional modeli takomillashtirilgan;

ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligining tarkibiy qismlarini pedagogik diagnostika qilish mezon va darajalari ishlab chiqilgan;

“Ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligi” maxsus kursi tayyorlangan va uning amaliy samaradorligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi mazkur tadqiqotning asosli metodologik bazasi, ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligi tuzilmasini ilmiy asoslangan yondashuvlar yordamida o'rganilganligi, tadqiqot tanlanmasining adekvat shakllantirilganligi, olingan natijalarning fanda qabul qilingan matematik-statistik mezonlar (Spirmen noparametrik mezoni bo'yicha korrelyatsion tahlil, Kolmogorov-Smirnov mezoni, Uilkokson noparametrik T-mezoni, Mann-Uitni U-mezoni bo'yicha qiyosiy tahlil) yordamida tahlil etilganligi, standart Excel, SPSS dasturlaridan foydalanilganligi hamda tadqiqot natijalarining tegishli ravishda talqin qilinganligi bilan ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligining pedagogik diagnostika qilish mezon, darajalari va pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnikasini ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi. Shuningdek, ishlab chiqilgan va standartlashtirilgan

so'rovnomalar pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishni takomillashtirish muammosini o'rganish bo'yicha tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish jarayonida qo'llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tayyorlangan va aprobatsiyadan o'tkazilgan maxsus kurs, ishlab chiqilgan pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini pedagogik diagnostika qilish mezon, darajalarini ta'lim transformatsiyasi sharoitida qo'llash mumkinligi bilan belgilanadi. Dissertatsiya tadqiqotining olingan nazariy va empirik natijalarini pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida qo'llash yuqori malakali pedagoglarni tayyorlash bo'yicha bilimlar doirasini kengaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot materiallaridan malaka talablari va o'quv dasturlarini takomillashtirishda, tegishli mutaxassislik va ta'lim yo'nalishlari bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda, oliy ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash jarayonini optimallashtirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi:

pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishining tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini raqamli va an'anaviy ta'limni uyg'unlashtirish, kasbiy rivojlanishni individual va refleksiv yondashuvlar asosida tashkil etish hamda malaka oshirish jarayonlarini adaptiv boshqarish orqali pedagoglarning kasbiy o'sish samaradorligiga ta'sir etuvchi subyektiv va obyektiv omillar uyg'unligini ta'minlash asosida aniqlash bo'yicha taklif va tavsiyalardan Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti va Belarus Respublikasi Oliy ta'lim instituti bilan hamkorlikda 2022-2024-yillarda bajarilgan IL-4821091576 "Masofaviy texnologiyalardan foydalangan holda oliy ta'lim va qayta tayyorlash, malaka oshirish tizimlarida o'quv faoliyatini tashkil etish" mavzusidagi innovatsion loyiha doirasida qo'llanilgan(Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 24-yanvardagi 02/01-01-30 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, pedagoglarning individuallashtirilgan o'qitish trayektoriyalarini yaratish, kasbiy refleksiv faoliyatni faollashtirish va masofaviy ta'lim sharoitida moslashuvchanlik ko'rsatkichlarini oshirish imkoniyati ta'minlangan;

oliy ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan tarkibiy-funksional modelini kompetensiyaviy, kognitiv-metapredmet va aksiologik mezonlar mazmunining vertikal (rivojlanish bosqichlari) va gorizontalar (fanlararo va faoliyatlararo) komponentlar bilan o'zaro ichki aloqadorligini ta'minlash, shuningdek kasbiy faoliyat natijalari bilan uzviy bog'lash asosida takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalardan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024- yil 6-sentabrdagi 333-sonli buyrug'i bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida № MO-4-19 raqam bilan ro'yhatga olingan "Ta'lim tizimi menejmenti" hamda № MO-A1-4-18 raqam bilan ro'yhatga olingan "Ta'limda menejment" yo'nalishlari bo'yicha malaka oshirish kurslarining o'quv rejaları va dasturlariga singdirilgan(Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 24-yanvardagi 02/01-01-30 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada

pedagoglarning kompetensiyaviy yondashuv asosida faoliyat yuritish, reflektiv tahlil va innovatsion menejment ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlangan;

ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonini reflektiv faoliyat, o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy moslashuvchanlik imkoniyatlarini faollashtiruvchi omillarni bosqichma-bosqich integratsiyalash orqali kasbiy o'sish trajektoriyalarini individuallashtirishga xizmat qiluvchi dinamik rivojlanish mexanizmi sifatida takomillashtirish bo'yicha takliflar va tavsiyalardan MRB-OT-2019-23 "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali pedagog kadrlarni tayyorlashning ilmiy-uslubiy ta'minoti" (2020-2021 yy.) mavzusidagi innovatsion loyiha doirasida qo'llanilgan(Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 24-yanvardagi 02/01-01-30 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada pedagoglarning kasbiy kompetentligi, reflektiv faoliyati va o'zini o'zi rivojlantirish motivatsiyasi sezilarli darajada oshgan;

pedagog kadrlarning kasbiy faoliyati samaradorligini baholashning diagnostik mexanizmlarini neyropedagogik kuzatuv, adaptiv monitoring hamda kasbiy faoliyat natijalarini ta'lim sifati ko'rsatkichlari bilan bog'lovchi integrallashgan baholash mezonlarining mazmuni va funksional imkoniyatlarini kengaytirish asosida takomillashtirish bo'yicha takliflar va tavsiyalardan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan № MO-391-2-12 raqamli "Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat" yo'nalishi bo'yicha davlat va nodavlat ta'lim muassasalari kadrlarini qo'shma malaka oshirish kursining o'quv reja va dasturlariga singdirilgan(Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 24-yanvardagi 02/01-01-30 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada pedagoglarning reflektiv faoliyati, kasbiy moslashuvchanligi hamda ta'lim sifati ko'rsatkichlari o'zaro bog'liq holda baholanishi ta'minlangan;

pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning metodik ta'minotini kreativ fikrlash, muammoni hal etish, reflektiv faoliyat va kasbiy faoliyatning zamonaviy talablariga tezkor moslashish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan adaptiv ta'lim texnologiyalariga asoslangan maxsus o'quv modulini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish orqali takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalardan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 6-sentabrdagi 333-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida № MO-4-19 raqam bilan ro'yhatga olingan "Ta'lim tizimi menejmenti" hamda № MO-AI-4-18 raqam bilan ro'yhatga olingan "Ta'limda menejment" yo'nalishlari bo'yicha malaka oshirish kurslarining o'quv reja-dasturlari va malaka talablariga singdirilgan(Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 24-yanvardagi 02/01-01-30 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada pedagoglarning kasbiy kompetentligi — ya'ni kreativ fikrlash, refleksiya va moslashuvchanlik salohiyati kompleks tarzda rivojlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi mavzusi bo'yicha 21 ta ilmiy ish, jumladan, 1 monografiya, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta maqola, shundan, 9 ta respublika va 5 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti shakllantirilgan, ilmiy yangiligi bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarning amaliyotga joriy etilishi yoritilgan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqotda pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishining nazariy va amaliy asoslari chuqur o'rganilgan bo'lib, bu jarayonning samaradorligini oshirish yo'nalishlari yoritilgan. Pedagogik tizimni takomillashtirishda ilg'or xorijiy tajribalar, ta'lim sifati monitoringi va innovatsion yondashuvlar muhim o'rin tutishi asoslab berilgan. Shuningdek, dissertatsiyada ushbu jarayonni samarali tashkil etishning ilmiy-metodik jihatlari ham tahlil qilinib, pedagoglarning o'z kasbiy mahoratini muntazam rivojlantirishlari uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari ta'lim jarayoniga tatbiq etish nuqtayi nazaridan ham yoritilib, ularning amaliy ahamiyati ta'kidlangan. Pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish va takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalar yordamida ularning malakasini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiyaning **“Ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida pedagogika fanida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligi tushunchasining mazmuni, ta'lim transformatsiyasining zamonaviy xususiyatlari hamda pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirish muammosi ko'rib chiqilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobida ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tizimli ravishda yoritilgan. Bobda zamonaviy pedagogika fanida “kasbiy kompetentlik” tushunchasining paydo bo'lishi, rivojlanishi, uning mazmuni va tarkibiy tuzilishiga doir qarashlar keng qamrovda tahlil qilingan. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuvning mohiyati, uning ta'lim tizimidagi o'rni hamda pedagog shaxsining kasbiy rivojlanishiga qo'yilayotgan yangi talablari ilmiy-nazariy manbalar asosida asoslab berilgan.

Olib borilgan ilmiy tahlillar kasbiy kompetentlikni pedagogning kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish, ta'lim jarayonida o'zaro muloqotga kirishish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, shaxsiy va professional refleksiyaning amalga oshirish kabi turli komponentlarni qamrab oluvchi integrativ sifat ekanini ko'rsatadi. Kasbiy kompetentlik pedagogning nazariy bilimlari bilan bir qatorda, amaliy ko'nikmalari, shaxsiy fazilatlari, refleksiv faoliyat komponentlari, kasbiy etika, kommunikativ salohiyat, raqamli madaniyat va o'zini doimiy rivojlantirishga intilishini bir butunlikda namoyon etadi. Bobda turli olimlarning kompetensiya va kompetentlik tushunchalari haqidagi ilmiy qarashlari solishtirilgan, ularning o'zaro farqlari va umumiy jihatlari aniqlashtirilgan. Shuningdek, pedagog kasbiy kompetentligining psixologik, metodik, kommunikativ, differensial-psixologik, innovatsion va axborot-kommunikativ ko'rinishlari bo'yicha mavjud ilmiy konsepsiyalar tahlil qilingan. Bu yondashuvlar kasbiy kompetentlikning strukturasi ko'p komponentli, dinamik va tizimli hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi. Zamonaviy ta'lim transformatsiyasi jarayonlari bobning alohida ilmiy yo'nalishini tashkil etadi. Global axborot oqimlari, raqamli texnologiyalar taraqqiyoti, ta'limning mazmuniy hamda tashkiliy jihatdan yangilanishi, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlari o'qituvchidan mutlaqo yangi kompetensiyalarni talab qilmoqda. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning ustuvorligi, o'quvchining mustaqil fikrlashini qo'llab-quvvatlash, kreativitiyga asoslangan pedagogik muhit yaratish, masofaviy ta'limning kengayishi pedagogning kasbiy rolini o'zgartirmoqda. Shu sababli tizimli fikrlash, refleksiya, kritik fikrlash, kommunikativ moslashuvchanlik, tezkor qaror qabul qilish kabi metakompetensiyalar zamonaviy pedagog uchun asosiy ustuvor yo'nalishlarga aylanmoqda. Bobda pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirish muammosi ham keng yoritilgan. Ilg'or pedagogik tajriba, xalqaro ta'lim tizimlari, yetakchi ilmiy maktablar nuqtayi nazaridan uzluksiz pedagogik ta'limning zarurligi asoslangan. Xususan, malaka oshirish, qayta tayyorlash, amaliyotga yo'naltirilgan tizimlarni joriy etish, individual ta'lim trayektoriyalarini yaratish, o'qituvchining amaliy ehtiyojlariga moslashuvchan dasturlarni ishlab chiqish kabi masalalarning ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Bundan tashqari, birinchi bobda pedagogning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur tashkiliy-pedagogik shartlar – innovatsion ta'lim muhiti, raqamli platformalar, shaxsiy rivojlanish strategiyalari, mentorlik tizimi, amaliyotga yo'naltirilgan o'qitish metodlari kabi jihatlar ilmiy asosda ko'rib chiqilgan. Oliy ta'limdan keyingi pedagogik tayyorlovning zamonaviy modeli, uning maqsadi, vazifalari va kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg'unlashuvi ham tahlil qilingan. Umuman olganda, birinchi bobda pedagog kasbiy kompetentligining nazariy-metodologik asoslari tizimli yoritilib, uning murakkab, integrativ va ko'p omilli pedagogik kategoriya ekanligi asoslab berilgan. Bu bobda olib borilgan ilmiy tahlillar dissertatsiyaning keyingi boblarida ishlab chiqilgan model, metodik ta'minot va tajriba-sinov ishlari uchun konseptual-metodologik poydevor yaratadi.

Dissertatsiya ishining **“Ta’lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirishning aksiologik jihati”** nomli ikkinchi bobida ta’lim jarayonining transformatsiyalashuvi sharoitida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning qadriyatga asoslangan mazmuni, uzluksiz pedagogik ta’limning tizimli salohiyati hamda oliy ta’limdan keyingi pedagogik ta’limning ijtimoiy vazifalari ilmiy-nazariy asosda yoritilgan.

Uzluksiz pedagogik ta’limning shakllantiruvchi-protsessual mohiyati tahlili shuni ko’rsatadiki, u katta yoshdagi pedagogning butun umri davomida rivojlanishini ta’minlaydigan sivilizatsion pedagogik tizim sifatida namoyon bo’ladi. Rasmiy, norasmiy va informal ta’lim shakllarining yaxlit integratsiyasi pedagogning **“Men – pedagog”** professional identifikatsiyasini shakllantiradi hamda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish uchun zarur shaxsiy va madaniy qadriyatlarni mustahkamlaydi. Uzluksiz ta’limning bu tizimli salohiyati informatsion jamiyat sharoitida pedagogning individual-kasbiy resurslarini ijodiy rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogik amaliyot uzluksiz ta’limni insonparvarlik qadriyatlariga tayanib tashkil etishni talab qiladi. Sog’lom turmush tarzi, bilim olishga intilish, o’ziga ishonch va jamiyatga qadriyatli munosabat kabi asosiy qadriyatlar pedagogning motivatsiyasini mustahkamlaydi va uning uzluksiz rivojlanishiga kuchli ta’sir ko’rsatadi. Uzluksiz pedagogik ta’limning qimmatini shundaki, u pedagogni tezkor o’zgaruvchan sharoitlarga moslashtiradi, mustaqil qaror qabul qilish, o’z faoliyatini va atrof-muhitni ijobiy o’zgartirishga qodir bo’lgan mutaxassisni shakllantiradi.

Oliy ta’limdan keyingi pedagogik ta’lim esa, zamonaviy sivilizatsiyaning muhim ijtimoiy elementi sifatida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini boyitishda alohida ahamiyatga ega. Ilmiy tadqiqotlar bu tizimning vazifasi nafaqat bilim berish, balki pedagogning shaxsiy pozitsiyasi, kasbiy qadriyatlari, ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish ekanini ko’rsatmoqda. Bu jarayonda mahalliy va global talablarga moslashuv, muassasa infratuzilmasi, professional muhit va pedagogning mehnat sharoitlari uning kasbiy motivatsiyasi va faoliyat samaradorligiga bevosita ta’sir ko’rsatadi.

Dissertatsiya ishining **“Ta’lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlar malakasini oshirishning pedagogik tizimini strukturaviy-funksional ta’minoti”** deb nomlangan uchinchi bobida ta’limdagi transformatsion jarayonlarning pedagog shaxsining o’z-o’zini rivojlantirishga ta’siri tadqiq etilgan, ta’lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligining tarkibiy tuzilmasi ajratilgan hamda ta’lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini rivojlantirishning tarkibiy-funksional modeli ishlab chiqilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining birinchi bobida amalga oshirilgan nazariy tahlillar ta’lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligi quyidagi to’rt asosiy tarkibiy qismdan iborat ekanini ko’rsatdi: qadriyatli-motivatsion, tashkiliy-normativ, axborot-faoliyatli va shaxsiy-refleksiv

komponentlar. Har bir komponent o'ziga xos belgilar majmuasi bilan tavsiflanadi: qadriyatli-motivatsion qism 6 ta, tashkiliy-normativ qism 10 ta, axborot-faoliyatli qism 18 ta, shaxsiy-refleksiv qism esa, 9 ta tegishli belgi (xususiyat)ni o'z ichiga oladi.

1-jadval

Ekspertlarning yosh va toifalarga ko'ra miqdoriy xususiyatlari (n =177)

Yosh toifalari	Ekspert toifalari							
	OTMlarning professor-o'qituvchilar tarkibi		Pedagog kadrlar malakasini oshirishga jalb qilingan professor-o'qituvchilar tarkibi		OTMlar va malaka oshirish tashkilotlari ma'muriyati		Jami	
	soni	foizda	soni	foizda	soni	foizda	soni	foizda
30 yoshdan 35 yoshgacha	12	11,76	9	15,52	1	5,88	22	12,43
36 yoshdan 40 yoshgacha	22	21,57	4	6,90	5	29,41	31	17,51
41 yoshdan 45 yoshgacha	19	18,63	11	18,97	5	29,41	35	19,77
46 yoshdan 50 yoshgacha	18	17,65	14	24,14	3	17,65	35	19,77
50 yoshdan 55 yoshgacha	18	17,65	12	20,69	1	5,88	31	17,51
56 yosh va undan katta	13	12,75	8	13,79	2	11,76	23	12,99
Jami	102	57,63	58	32,77	17	9,60	177	100,00

Mazkur tarkibiy qismlar va ularning belgilarini aniqlashtirish jarayonida avvalgi ilmiy tadqiqotlar natijalari chuqur o'rganilib, ular ekspert baholash orqali dolzarbligi nuqtai nazaridan tekshirildi. Shu maqsadda maxsus so'rovnoma ishlab chiqildi. Unda har bir belgi bo'yicha baholashni aniq va qulay amalga oshirish uchun 10 ballik ekspert baholash shkalasi joriy qilindi. So'rovnoma bilan birga ekspertlarga batafsil tushuntirish yo'riqnomasi ham taqdim etildi.

Ekspertiza jarayonida pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish sohalarida katta amaliy tajribaga ega bo‘lgan, turli yoshdagi ayol va erkaklardan iborat 177 nafar ekspert ishtirok etdi (1-jadval). Ularning fikrlari kasbiy kompetentlik tuzilmasini ilmiy asosda aniqlashtirishga imkon berdi.

So‘rovnomadan olingan barcha ma’lumotlar dastlabki ishlovdan so‘ng umumiy jadvalda jamlandi. Bu bizga birlamchi tavsiflovchi statistika – moda (Mo), mediana (Md) va arifmetik o‘rtacha (M) – ko‘rsatkichlarini hisoblash orqali ta’lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini tashkil etuvchi belgilarni to‘g‘ri baholash imkonini berdi.


Ekspert baholash natijalariga ko‘ra, 43 ta belgi ichidan 5 tasi o‘rtacha muvofiqlik darajasiga ega bo‘ldi. Ularning moda (5-6 ball), mediana (5-6 ball) va o‘rtacha (5,37-6,28 ball) ko‘rsatkichlari ushbu belgilar kasbiy kompetentlik tarkibiga nisbatan kamroq mos kelishini ko‘rsatadi.

Qolgan 38 ta belgi esa, ekspertlar tomonidan yuqori darajada mos deb baholandi. Ular bo‘yicha moda va mediana 9 ballni, arifmetik o‘rtacha esa, 8,50-8,85 ballni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkichlar ushbu 38 ta belgi ta’lim transformatsiyasi sharoitida zamonaviy pedagog kadrlar kasbiy kompetentligining eng muhim va dolzarb tarkibiy qismlari ekanini tasdiqlaydi (1-rasm).



1-rasm. Ta’lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligi tarkibiy tuzilmasi

Ta’lim transformatsiyasi sharoitida o‘qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonini modellashtirish bo‘yicha asosiy yondashuvlarni inobatga olgan holda, ushbu tadqiqot natijalariga tayanib, biz ta’lim transformatsiyasi sharoitida pedagogik kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning tarkibiy-funksional modelini ishlab chiqdik. Mazkur model shartli ravishda to‘rtta blokni o‘z ichiga oladi (2-rasm).



2-rasm. Ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning tarkibiy-funksional modeli

Tadqiqotda taklif qilinayotgan “Ta’lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning tarkibiy-funksional modeli” zamonaviy ta’lim jarayonining murakkab transformatsion xususiyatlarini hisobga olgan holda, pedagogning kasbiy kompetentligini izchil, tizimli va fanlararo yondashuv asosida shakllantirishga qaratilgan pedagogik tizim sifatida talqin etiladi. Modelning nazariy asoslari pedagogik, psixologik, aksiologik, akmeologik va raqamli kompetensiya paradigmalari bilan mustahkamlangan bo‘lib, u pedagogning kasbiy rivojlanish jarayoniga ta’sir etuvchi tashqi va ichki omillarning yaxlit metodologik interpretatsiyasini beradi. Shuningdek, model ta’limning transformatsion bosqichida yuzaga kelayotgan yangi talablar – raqamlashtirish, innovatsion texnologiyalar, axborot oqimlarining intensivligi, ijtimoiy-madaniy dinamikalar, pedagogik faoliyatning diversifikatsiyalashuvi bilan uzviy bog‘liq holda ishlab chiqilgan.

Modelning konseptual-qadriyatli bloki pedagog kasbiy kompetentligining shakllanishi uchun asos bo‘luvchi metodologik yondashuvlarni mujassamlashtiradi. Bu blokda shaxsga yo‘naltirilgan, tizimli, kompetensiyaviy, transformatsion hamda akmeologik yondashuvlarning o‘zaro integratsiyasi pedagog faoliyatining maqsad va vazifalarini belgilaydi. Ushbu blokda qayd etilgan yondashuvlar pedagog faoliyatiga metodologik vektor beradi, kasbiy o‘zlikni anglashni, kasbiy motivlarning mustahkamlanishini, raqamli madaniyat va raqamli etik me’yorlarning shakllanishini ta’minlaydi. Mazkur blokda metakognitiv faollik, professional refleksiya, qadriyatli yo‘nalganlik va o‘zini rivojlantirishga tayyorgarlik kabi sifatlar pedagogning kompetentlik tuzilmasining negizi sifatida talqin etiladi.

Funksional-faoliyatli blok modelning amaliy mazmunini tashkil etadi va pedagog kompetentligining faoliyatda namoyon bo‘lish mexanizmlarini belgilaydi. Modelda aniq ko‘rsatilgan to‘rtta yetakchi funksiya – rivojlantiruvchi, axborot, kompensator va refleksiv funksiyalar pedagogik faoliyatning ichki tuzilishini ifodalaydi. Rivojlantiruvchi funksiya pedagog va talaba rivojlanishining psixologik-pedagogik mexanizmlarini ishga solsa, axborot funksiyasi global axborot makonidagi bilimlarni izlash, tahlil qilish, qayta ishlash va ulardan samarali foydalanishni nazarda tutadi. Kompensator funksiya pedagogdagi kasbiy bo‘shliqlar va eskirgan bilimlarni aniqlash va ularni to‘ldirish jarayonini boshqaradi, refleksiv funksiya esa pedagogning o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va kasbiy o‘zlash strategiyalarini belgilash qobiliyatini rivojlantiradi. Bu funksiyalar o‘zaro integrativ birlikda kompetentliging dinamik rivojlanish jarayonini ta’minlaydi.

Texnologik-tashkiliy blok modelning asosiy amaliy segmenti bo‘lib, pedagog kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladigan metod, shakl, texnologiya va vositalarning kompleksini ifodalaydi. Mazkur blok tarkibiga guruhli va individual o‘qitish texnologiyalari, innovatsion metodlar, interfaol yondashuvlar, muammoli o‘qitish, kontekstli yondashuv, raqamli texnologiyalar, treninglar, maxsus kurslar, mahorat darslari, portfolio texnologiyasi, mustaqil ta’lim faoliyati kiradi. Texnologik blokning o‘ziga xos jihati – u pedagog kompetentligini rivojlantirish jarayonini amaliyot bilan bevosita uzviy bog‘laydi, ayni paytda, pedagogni

transformatsion o'zgarishlarga moslasha oladigan professional subyekt sifatida tayyorlaydi.

Baholash-refleksiv blok modelning yakuniy komponenti bo'lib, pedagogning kasbiy kompetentligini diagnostika qilish, monitoring yuritish, refleksiv tahlil qilish va rivojlanish dinamikasini baholash kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Dissertatsiyada qayd etilganidek, pedagog kompetentligini baholash qadriyatli-motivatsion, tashkiliy-normativ, axborot-faoliyatli va shaxsiy-refleksiv tarkibiy qismlar asosida amalga oshiriladi, ekspertlar tomonidan berilgan baholashlar model tarkibiy elementlarining ilmiy asoslanganligini tasdiqlaydi. Mazkur blok kasbiy o'sishning regressiv, stabil va progressiv yo'nalishlarini aniqlashga imkon berib, pedagogning individual rivojlanish trayektoriyasini belgilashga xizmat qiladi.


Modelning barcha bloklari o'zaro funksional, mazmuniy va tashkiliy jihatdan integratsiyalashgan bo'lib, pedagogning kasbiy kompetentligini samarali rivojlantirish imkonini beradigan yaxlit, tizimli va ilmiy asoslangan pedagogik tizimni tashkil etadi. Model ta'lim transformatsiyasi sharoitida ehtiyojga asosan yuzaga kelayotgan yangi kompetensiyalarni – raqamli fikrlash, innovatsion faoliyat, tanqidiy va metakognitiv tafakkur, kasbiy moslashuvchanlik va refleksiv madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, modelning qo'llanishi zamonaviy ta'lim muhiti uchun zarur bo'lgan professional, ijodkor, transformativ fikrlaydigan va mas'uliyatli pedagog shaxsini tayyorlashning ilmiy-amaliy asosini yaratadi.

Dissertatsiya ishining **“Pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi pedagogik tizimini amaliyotga joriy etilishi”** deb nomlangan to'rtinchi bobida ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligining tarkibiy komponentlarini pedagogik diagnostika qilish usullari, ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligining tarkibiy komponentlarini rivojlantirishning zamonaviy holati, shuningdek, ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini rivojlantirish maxsus kursining xususiyatlari va uning samaradorligi ochib berilgan.

Ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini diagnostika qilish maqsadida ikki turdagi maxsus vosita ishlab chiqildi: pedagoglarning o'zini o'zi baholashiga mo'ljallangan “Kasbiy kompetentlikni o'rganish so'rovnomasi” va mutaxassislar tomonidan baholash uchun “Ekspert so'rovnomasi”. Har ikkala so'rovnoma dissertatsiyada asoslangan kasbiy kompetentlikning to'rtta asosiy tarkibiy qismiga birlashtirilgan 38 ta belgi asosida tuzildi.

O'zini baholash so'rovnomasi pedagogning kasbiy kompetentligini aniqlashga xizmat qiluvchi 38 ta savoldan iborat bo'lib, har bir savolga to'rt variantli javoblar taklif etildi. So'rovnomaga batafsil yo'riqnoma, natijalarni qayta ishlash kaliti va talqin mexanizmi ishlab chiqildi hamda standartlashtirish amalga oshirildi. Ekspert so'rovnomasi ham xuddi shu tarkibiy tuzilma asosida tayyorlanib, malakali mutaxassislar tomonidan kompetentlik darajasini baholash imkonini berdi.

Shu asosda oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligining mavjud holati va muammolarini aniqlashga qaratilgan empirik tadqiqot tashkil etildi (3-rasm).




3-rasm. Pedagog kadrlar kasbiy kompetentligining tarkibiy qismlarini rivojlantirishning zamonaviy holatini empirik tadqiq etish dizayni

Birinchi bosqich doirasida empirik tadqiqot tanlanmasi shakllantirildi. Shu maqsadda biz tomondan 327 nafar rejalashtirilgan malaka oshirish kursidan o'tayotgan pedagoglar tanlab olindi. Jumladan, jami respondentlarning 51,07% (167 nafar)ni ayollar, 48,63% (160 nafar)ni erkaklar tashkil etdi. Yosh xususiyatlariga ko'ra, respondentlarning aksariyati (26,61 – 87 kishi) 25 yoshdan 30 yoshgacha bo'lganlar, eng kam pedagoglar (12,23% – 40 kishi) esa, 46 yosh va undan katta yoshdagilardir (4-rasm).


Empirik tadqiqotimizning qolgan respondentlari soni quyidagicha taqsimlandi: 31 yoshdan 35 yoshgacha – 24,46% (80 kishi); 36 yoshdan 40 yoshgacha – 20,18%

(66 kishi); 41 yoshdan 45 yoshgacha – 16,51% (54 kishi). Pedagogik faoliyat staji bo‘yicha respondentlarning aksariyati (41,9% – 137 kishi) 5 yilgacha pedagogik lavozimlarda ishlagan, eng kam (15,6% – 51 kishi) 16 yil va undan ko‘p ishlagan.



4-rasm. Empirik tadqiqot tanlamasining yosh bo‘yicha miqdoriy tavsifi (n=327)

Empirik tadqiqotning qolgan respondentlari soni quyidagicha taqsimlandi: 6 yildan 10 yilgacha – 21,1% (69 nafar); 11 yildan 15 yilgacha – 21,41% (70 nafar) (5-rasm).



5-rasm. Empirik tadqiqot tanlamasining pedagogik faoliyat staji bo‘yicha miqdoriy tavsifi (n=327)

Umuman olganda, ko'rsatkichlarning ish staji bo'yicha taqsimlanishini ko'rib chiqib, shuni ta'kidlash mumkinki, o'qituvchilarning yarmidan ko'pi 10-yilgacha ish stajiga ega. Bu respondentlarning yosh bo'yicha taqsimotiga mos keladi va yosh pedagog kadrlarning nisbatan ko'pligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Respondentlarning birlamchi tavsiflari yakunida shuni ta'kidlash joizki, empirik tadqiqot namunasi tasodifiy tarzda shakllantirilgan, ya'ni ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalarini umumiy to'plamga tarqatish imkoniyatini ta'minlash maqsadida randomizatsiyalangan yondashuv qo'llanilgan.


Keyinchalik, empirik tadqiqotning birinchi bosqichi doirasida biz oldindan ishlab chiqilgan diagnostik vositalar yordamida butun tanlanmani pedagogik tekshiruvdan o'tkazdik. Shu bilan birga, yuqoridagi vositalar bo'yicha ekspert baholashga tajribali pedagog kadrlardan 69 nafar ekspert jalb etildi (2-jadval).

2-jadval

Ekspertlarning yoshi va jinsi bo'yicha miqdoriy tavsifi (n=69)


Yosh kategoriyasi	Ayollar		Erkaklar		Jami	
	soni	%	soni	%	soni	%
41 dan 45 yoshgacha	5	13,51	3	9,38	8	11,59
46 dan 50 yoshgacha	10	27,03	9	28,13	19	27,54
51 dan 55 yoshgacha	12	32,43	11	34,38	23	33,33
56 yosh va undan kattalar	10	27,03	9	28,13	19	27,54
Jami	37	53,62	32	46,38	69	100,00

Empirik tadqiqotning ikkinchi bosqichi doirasida biz pedagogik tekshiruv natijalarini ikkita diagnostik vosita bo'yicha birlamchi qayta ishlashni amalga oshirdik va ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligining tarkibiy qismlarini rivojlantirishning hozirgi holatini vizual o'rganish imkonini beradigan chastotali tahlil o'tkazdik. Xususan, qadriyatli-motivasion tarkibiy qism doirasida pedagog kadrlarning aksariyati (54,74% – 179 kishi) o'rganilayotgan hodisaning rivojlanganligi o'rta darajasiga ega bo'ldilar. Pedagoglarning eng kam sonida (21,71% – 71 kishi) qadriyatli-motivasion tarkibiy qism rivojlanganligining o'rta darajadan pastligi kuzatildi. Shunga ko'ra, o'rganilgan pedagoglarning 23,55% (77 nafar)da bu ko'rsatkich o'rtadan yuqori darajada ekanligi aniqlandi (6-rasm).



6-rasm. Ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligining qadriyatli-motivasion tarkibiy qismi rivojlanganligining zamonaviy holati (n=327)


Tashkiliy-normativ tarkibiy qismi bo'yicha tadqiq etilgan pedagoglarning ko'pchiligida (54,74% – 179 kishi) o'rganilayotgan hodisa namoyon bo'lishining o'rta darajasi kuzatildi. Shu bilan birga, ta'lim transformatsiyasi sharoitida kasbiy kompetentlikning tashkiliy-normativ tarkibiy qismi rivojlanganligi ko'rsatkichi o'rta darajadan past va o'rta darajadan yuqori bo'lgan respondentlar soni bir xil – 22,63% (74 kishi)ni tashkil etdi (7-rasm).



7-rasm. Ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligining tashkiliy-normativ tarkibiy qismi rivojlanganligining zamonaviy holati (n=327)


Axborot-faoliyatli tarkibiy qismni tadqiq etish doirasida pedagoglarning aksariyati (55,66% – 182 kishi) o'rganilayotgan belgi rivojlanganligining o'rta darajasiga ega ekanligi aniqlandi. Tekshirilganlarning eng kam qismida (21,71% –

71 kishi) axborot-faoliyatli tarkibiy qism rivojlanganligining oʻrta darajadan pastligi aniqlangan. Shunga koʻra, 22,63% (74 kishi)da axborot-faoliyatli takibiy qism rivojlanganligining oʻrta darajadan yuqoriligi aniqlangan (8-rasm).




8-rasm. Taʼlim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligining axborot-faoliyatli tarkibiy qismi rivojlanganligining zamonaviy holati (n=327)

Shaxsiy-refleksiv tarkibiy qism doirasida shuni taʼkidlash joizki, pedagoglarning aksariyati (54,13% – 177 kishi) oʻrganilayotgan hodisaning oʻrta darajadagi ifodalanishiga ega boʻlgan. Oʻrganilganlarning eng kam qismida (22,32% – 73 kishi) taʼlim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligining shaxsiy-refleksiv tarkibiy qismi rivojlanganligining oʻrta darajadan yuqori ekanligi aniqlandi. Shunga koʻra, 23,55% (77 kishi)da shaxsiy-refleksiv tarkibiy qism rivojlanganligining oʻrta darajadan past ekanligi aniqlangan (9-rasm).



9-rasm. Taʼlim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligining shaxsiy-refleksiv tarkibiy qismi rivojlanganligining zamonaviy holati (n=327)

Umuman kasbiy kompetentlikning pedagogik diagnostikasi doirasida pedagoglarning ko‘pchiligida (54,13% – 177 kishi) o‘rganilayotgan hodisaning o‘rta darajada ifodalanishi kuzatilishi aniqlangan. Respondentlarning eng kam soni (21,71% – 71 kishi)da ta‘lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligi rivojlanganligi o‘rta darajadan past bo‘lgan. Kasbiy kompetentlikning o‘rta darajadan yuqori ko‘rsatkichi 24,16% (79 nafar) respondentda aniqlangan (10-rasm).



10-rasm. Ta‘lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligi rivojlanganligining zamonaviy holati (n=327)

Tadqiqot doirasida kasbiy kompetentlik va pedagogik faoliyat o‘rtasidagi bog‘liqlik Spirmenning noparametrik korrelyatsiya mezonini orqali tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, pedagogik staj kompetentlik darajasiga faqat o‘rtacha darajada ta‘sir etadi ($r=0,487$; $p<0,05$), ya‘ni kasbiy tayyorgarlik avtomatik ravishda staj bilan oshmaydi. Shu bilan birga, kompetentlikning barcha asosiy komponentlari – qadriyatli-motivatsion ($r=0,494$), tashkiliy-normativ ($r=0,510$), axborot-faoliyatli ($r=0,344$) va shaxsiy-refleksiv ($r=0,249$) – pedagogik staj bilan statistik jihatdan ishonchli bog‘liq ekanini aniqlandi, ammo bog‘lanish kuchi past va o‘rtacha diapazonda bo‘ldi.

Eksperimental tadqiqot natijalari (3-jadval) tajriba va nazorat guruhlarini ko‘rsatkichlarini qiyosiy baholash orqali maxsus kursning samaradorligini tasdiqladi. Tajriba guruhida kasbiy kompetentlikning barcha komponentlari bo‘yicha sezilarli ijobiy o‘zgarish kuzatildi ($p<0,01$), xususan umumiy kompetentlik (+3,7), qadriyatli-motivatsion (+3,7) va shaxsiy-refleksiv (+2,2) komponentlarda eng yuqori dinamikaga erishildi. Nazorat guruhida esa o‘zgarishlar statistik ahamiyat kasb etmadi ($p>0,05$). Ushbu natijalar asosida ishlab chiqilgan “Ta‘lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligi” maxsus kursi pedagoglarning kompetensiyalarini samarali rivojlantiruvchi amaliy vosita ekanini isbotladi. Kurs ayniqsa qadriyatli-motivatsion va shaxsiy-refleksiv tarkibiy qismlarni faollashtirish orqali boshqa kompetensiyalarni ham kompleks yuksaltirishga xizmat qilishi aniqlangan.


Ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha eksperiment natijalari

Ko'rsatkich	Guruh	Boshlang'ich ko'rsatkich (M±SD)	Yakuniy ko'rsatkich (M±SD)	O'rtacha o'sish	Statistik ahamiyat (p)
Kasbiy kompetentlik umumiy darajasi	Tajriba guruhi	4.2 ± 0.6	7.9 ± 0.5	+3.7	p < 0.01
	Nazorat guruhi	4.1 ± 0.5	4.6 ± 0.6	+0.5	p > 0.05
Qadriyatli-motivatsion komponent	Tajriba guruhi	4.3 ± 0.5	8.0 ± 0.4	+3.7	p < 0.01
	Nazorat guruhi	4.1 ± 0.4	4.7 ± 0.5	+0.6	p > 0.05
Axborot-faoliyatli komponent	Tajriba guruhi	4.0 ± 0.7	7.8 ± 0.5	+3.8	p < 0.01
	Nazorat guruhi	4.2 ± 0.6	4.8 ± 0.6	+0.6	p > 0.05
Tashkiliy-normativ komponent	Tajriba guruhi	4.4 ± 0.6	8.1 ± 0.4	+3.7	p < 0.01
	Nazorat guruhi	4.2 ± 0.5	4.8 ± 0.5	+0.6	p > 0.05
Shaxsiy-refleksiv komponent	Tajriba guruhi	4.5 ± 0.6	7.7 ± 0.5	+3.2	p < 0.01
	Nazorat guruhi	4.3 ± 0.5	4.6 ± 0.6	+0.3	p > 0.05

Tadqiqot doirasida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan 36 soatlik maxsus kurs ishlab chiqildi. Kurs mazmuni ta'lim transformatsiyasi sharoitida kasbiy kompetentlikning mohiyati va tarkibiy qismlari haqida tasavvurlarni kengaytirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirildi.

Maxsus kurs samaradorligini aniqlash uchun 84 nafar pedagog ishtirokida eksperimental tadqiqot o'tkazildi. Respondentlar tasodifiy tanlov asosida tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Kurs faqat tajriba guruhida tatbiq etildi va keyingi diagnostika natijalari ushbu kursning pedagoglar kasbiy kompetentligini sezilarli darajada oshirganini ko'rsatdi. Ushbu maxsus kursni amaliyotga joriy etishdan oldin uning samaradorligini ilmiy asosda tekshirish talab etiladi. Shu maqsadda tadqiqot

doirasida eksperimental ishlar tashkil qilindi. Birinchi bosqichda tadqiqot tanlanmasi shakllantirilib, randomizatsiya asosida ikkita guruhga – tajriba va nazorat guruhlariga – taqsimlandi. Umumiy tanlanma 84 nafar pedagogdan iborat bo‘lib, turli yoshdagi ayollar va erkaklar ushbu jarayonda ishtirok etdi. Shulardan 39 nafari (46,43%) tajriba guruhiga, 45 nafari (53,57%) esa, nazorat guruhiga biriktirildi (11-rasm).



11-rasm. Eksperimental tadqiqot tajriba va nazorat guruhlarining miqdoriy tavsifi (n=84)

Empirik tadqiqotning birinchi bosqichida diagnostika vositalari sinovdan o‘tkazilib, ular asosida tanlangan barcha respondentlar bo‘yicha pedagogik diagnostika amalga oshirildi. Olingan natijalar yagona jadvalga jamlanib, ularning umumiy talqini uchun birlamchi statistik tahlil bajarildi. Ikkinchi bosqichda tajriba guruhi uchun maxsus ishlab chiqilgan “Ta’lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligi” kursi bir oy davomida o‘tkazildi. Kursdan so‘ng, shuningdek uch oy o‘tgach – pedagoglarning kundalik faoliyatidagi real o‘zgarishlarni baholash maqsadida – takroriy diagnostika amalga oshirildi. Bu jarayonda avval ishlab chiqilgan o‘zini baholash va ekspert baholash vositalaridan foydalanildi. Uchinchi bosqichda barcha pedagogik tekshiruv natijalari tahlil qilinib, tajriba va nazorat guruhlarini o‘rtasidagi farqlar SPSS dasturida qiyoslandi. Bu uchun ikkita keng qo‘llaniladigan noparametrik mezon tanlandi: bog‘liq tanlanmalar uchun Uilkokson T-mezone, bog‘liq bo‘lmagan tanlanmalar uchun esa Mann-Uitni U-mezone. Mann-Uitni U-mezone asosida o‘tkazilgan birinchi qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, maxsus kurs boshlanishidan avval tajriba va nazorat guruhlarini o‘rtasida kasbiy kompetentlik hamda uning barcha tarkibiy qismlari bo‘yicha statistik farqlar mavjud emas ($p > 0,05$). Shuningdek, pedagogik staj bo‘yicha ham guruhlar orasida tafovut kuzatilmadi, bu esa eksperimentni to‘g‘ri tashkil etilganini tasdiqlaydi. Ikkinchi qiyosiy tahlil esa, mutlaqo boshqa natijani ko‘rsatdi: maxsus kursdan keyin tajriba guruhi va nazorat guruhi o‘rtasida barcha komponentlar

bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli farqlar yuzaga keldi ($p < 0,05$). Bu pedagoglarda kompetentlik rivojlanishida kursning sezilarli ta'sir ko'rsatganini bildiradi. Bog'liq tanlanmalar uchun Uilkokson mezoni ham xuddi shunday dinamikani tasdiqladi. Tajriba guruhining birinchi va ikkinchi diagnostika natijalari o'rtasida barcha komponentlarda sezilarli o'sish qayd etildi ($p < 0,05$). Nazorat guruhida esa birinchi va ikkinchi tekshiruvlar orasida hech qanday statistik ahamiyatli farq aniqlanmadi ($p > 0,05$). Chastotali tahlil natijalari ham bu holatni yaqqol tasdiqladi. Maxsus kursda ishtirok etgan tajriba guruhida: o'rtachadan past darajaga ega pedagoglar ulushi 20,51% dan 7,69% gacha kamaydi; o'rtacha darajadagi pedagoglar ulushi 58,97% dan 41,03% gacha qisqardi; o'rtachadan yuqori darajaga ega pedagoglar ulushi 20,51% dan 51,28% gacha sezilarli oshdi.

Nazorat guruhida esa bunday dinamik o'zgarishlar kuzatilmadi. Baholash ko'rsatkichlari amalda o'zgarmay qoldi: o'rtachadan past daraja 11,11% dan 8,89% gacha biroz kamaygan bo'lsa, o'rtacha daraja o'zgarishsiz qoldi (62,22%), o'rtachadan yuqori ko'rsatkich esa atigi 2 foizga oshdi.

Umuman olganda, barcha statistik tahlillar maxsus kursning pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda yuqori samarali ekanini, uning ta'siri esa barqaror, statistik jihatdan ishonchli va amaliy jihatdan ahamiyatli ekanini tasdiqladi.

XULOSA

Mazkur dissertatsiya ishi ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish yo'llarini tadqiq etishga bag'ishlangan. Ushbu muammoning dolzarbligi, birinchi navbatda, ta'lim tizimida sodir bo'layotgan transformatsion jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, ular yangi talablarni qo'yimoqda va o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga bo'lgan yondashuvlarni takomillashtirishni, fan, texnika sohasidagi jahon innovatsion kashfiyotlari sharoitida uning uzluksiz kasbiy rivojlanishga bo'lgan barqaror qobiliyatini shakllantirishni zarur darajada ta'minlashni talab qiladi.

Dissertatsiya ishida ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan, kasbiy kompetentlik tushunchasi ochib berilgan, ta'lim transformatsiyasining zamonaviy xususiyatlari yoritilgan, pedagog kadrlarni uzluksiz rivojlantirish muammolari, tizimli salohiyat hamda uning transformatsiyasi sharoitida uzluksiz pedagogik ta'limning qadriyatli ustuvorliklari ko'rib chiqilgan. Empirik tadqiqot orqali ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning tarkibiy-funksional modeli hamda kasbiy kompetentlik tuzilmasi ochib berildi. Kasbiy kompetentlikning tarkibiy komponentlarini pedagogik tashxislashning tegishli texnikalari ishlab chiqildi. Ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha maxsus kurs tayyorlandi va uning amaliy samaradorligi tekshirildi.

Shunday qilib, o'tkazilgan dissertatsiya tadqiqoti quyidagi asosiy xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

1. O‘tkazilgan nazariy izlanishlar, zamonaviy ilmiy manbalar tahlili va amaliy pedagogik tajriba shuni ko‘rsatdiki, ta‘lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirish masalasi ta‘lim tizimining strategik ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Globallashuvning kuchayishi, ta‘lim jarayonining raqamlashtirilishi, jamiyatning axborotlashuvi va fan-texnika taraqqiyotining jadal tus olishi o‘qituvchiga qo‘yilayotgan kasbiy talablarning sifat jihatidan o‘shishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa, pedagogning kasbiy kompetentligini zamonaviy sharoitga mos ravishda qayta ko‘rib chiqish, uni integrativ, tizimli va dinamik tarzda rivojlantirishning ilmiy zaruratga aylanganini ko‘rsatadi.

2. Tadqiqot davomida pedagog kasbiy kompetentligining mazmuni psixologik-pedagogik, metodik, axborot-kommunikativ, madaniy va ixtisoslik bilimlarining o‘zaro integratsiyasi asosida shakllanuvchi murakkab shaxsiy sifat ekanligi aniqlanib, uning mohiyati chuqur tahlil qilindi. Kasbiy kompetentlikning tarkibida ijodiy yondashuv, refleksiv tafakkur, professional moslashuvchanlik, o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj, innovatsion texnologiyalarni qo‘llashga tayyorlik kabi zamonaviy kompetensiyalar alohida ahamiyat kasb etishi qayd etildi. Shu bois pedagog kompetentligi ta‘lim jarayonining ham poydevori, ham yakuniy natijasi sifatida talqin qilindi.

3. Ta‘limning transformatsiyaga uchrashi jarayonida reproduktiv bilimlarga asoslangan an‘anaviy modeldan voz kechilib, integrativ, kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuv ustuvorlik kasb etayotgani isbotlandi. Raqamli texnologiyalar, masofaviy ta‘lim, multimodal axborot resurslari, sun‘iy intellekt elementlari va interaktiv metodlarning ta‘lim jarayoniga kirib kelishi pedagog faoliyatining mazmuni, shakli, texnologiyalari va tamoyillarini tubdan o‘zgartirmoqda. Bu esa, zamonaviy pedagogning o‘z kasbiy kompetentligini doimiy ravishda yangilab borishini hayotiy zaruratga aylantiradi.

4. Dissertatsiyada uzluksiz pedagogik ta‘limning zamonaviy aksiologik asoslari chuqur tahlil qilindi va mavjud nazariy yondashuvlar asosida pedagogning “Men-pedagog” subyektligini shakllantiruvchi sivilizatsion megatizim sifatida qayta yoritildi. Uzluksizlik ta‘lim jarayonining ontologik-metodologik xususiyati sifatida talqin qilinib, uning bosqichlararo izchilligi, rasmiy, norasmiy va informal ta‘lim shakllarining integratsiyasi pedagogning kasbiy rivojlanishidagi hal qiluvchi omil sifatida asoslandi. Bu esa, pedagogning butun umri davomida professional kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

5. Oliy ta‘limdan keyingi pedagogik ta‘limning jahon miqyosida amaliy kompetensiyalarga yo‘naltirilgan shaklga o‘tayotgani, nazariy bilimlarni takrorlashdan ko‘ra, real muammolarni hal qiluvchi innovatsion texnologiyalar, shaxsiy ta‘lim trayektoriyalari, masofaviy o‘qitish vositalari va integrativ metodlarni qo‘llash ustuvor bo‘lib borayotgani aniqlandi. Bu yondashuv pedagogning kasbiy kompetentligini tezkor, moslashuvchan va individuallashtirilgan tarzda rivojlantirishga imkon yaratadi.

6. Ekspert baholash (n=177) natijalari asosida pedagog kasbiy kompetentligining nazariy modelidagi 43 belgi ichida 38 tasi yuqori statistik mezonlar bo‘yicha tasdiqlandi. Bu esa kompetentlik strukturasi ilmiy aniqligi,

mazmuniy asoslanganligi va pedagogik diagnostika uchun ishonchliligini ko'rsatdi. Qadriyatli-motivatsion, tashkiliy-normativ, axborot-faoliyatli va shaxsiy-refleksiv komponentlarning yetakchi tarkibiy qismlar sifatida ajralib chiqishi kompetentlikning integrativ mohiyatini ilmiy dalilladi.

7. Tadqiqotda pedagog kasbiy kompetentligini aniqlashga mo'ljallangan ikkita instrumentariy ishlab chiqildi: o'zini baholash so'rovnomasi va ekspert baholash so'rovnomasi. Ushbu diagnostik vositalar empirik ma'lumotlar (n=327) asosida standartlashtirildi, ularning natijalarini baholash mezonlari ishlab chiqildi, kompetentlik darajalari (bazaviy, o'rta, yuqori) bo'yicha normativ ko'rsatkichlar belgilandi. Natijalar pedagoqlarda ayrim tarkibiy qismlar bo'yicha sezilarli bo'shliqlar mavjudligini ko'rsatdi.

8. Korrelyatsion tahlil pedagogik staj bilan kasbiy kompetentlik darajalari o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli, ammo o'rtacha darajadagi bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Bu holat shuni anglatadiki, pedagogning staji uzluksiz kasbiy rivojlanishni avtomatik ravishda ta'minlamaydi; aksincha, zamonaviy kompetensiyalarni egallash muntazam malaka oshirish, innovatsion yondashuvlarni o'zlashtirish va individual rivojlanish strategiyalarini amalga oshirish orqali ta'minlanadi.

9. Tadqiqot asosida ishlab chiqilgan "Ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligi" maxsus kursi 36 akademik soatga mo'ljallangan bo'lib, u pedagogning mustaqil rivojlanish, refleksiv tahlil va kasbiy motivatsiyani kuchaytirishga qaratilgan o'quv modullarini o'z ichiga oladi. Kurs mazmunida innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, amaliy topshiriqlar, kasus tahlillari, mustaqil izlanishlar va refleksiv mashqlar tizimli ravishda uyg'unlashtirildi.

10. Eksperimental tadqiqot (n=84) maxsus kursning samaradorligini to'liq tasdiqladi. Tajriba guruhida pedagoqlarning kasbiy kompetentligida sezilarli o'sish, xususan, o'rtadan past ko'rsatkichlarning kamayishi va o'rtadan yuqori darajaga ko'tarilishi qayd etildi; nazorat guruhida esa bunday ijobiy o'zgarishlar kuzatilmadi. Bu natijalar ishlab chiqilgan model, diagnostika vositalari va maxsus kursning amaliy samaradorligini, shuningdek ularni keng ko'lamda ta'lim tizimiga joriy etish zarurligini ilmiy asosda ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. O'tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslanib, pedagogik kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishni shaxsga yo'naltirilgan, tizimli va kompetentlik yondashuvlariga asoslangan uzluksiz ta'limning kompleks dasturlarini maqsadli amalga oshirish orqali faollashtirish tavsiya etiladi. Ushbu dasturlar zamonaviy pedagoqlarga qo'yilayotgan talablarni, ta'limdagi transformatsion jarayonlar dinamikasini va moslashuvchan, ijodiy hamda kasbiy jihatdan motivatsiyalangan mutaxassislariga yuqori ehtiyojni inobatga olishi kerak.

2. Alohida e'tiborni kasbiy kompetentlikning qadriyat-motivatsion va shaxsiy-refleksiv tarkibiy qismlarini rivojlantirishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Aynan ushbu komponentlar doimiy o'z-o'zini rivojlantirishga barqaror ichki

motivatsiyani, o'z kasbiy faoliyatini tanqidiy tahlil qilishni va ta'lim jarayoni sifatini oshirishga intilishni shakllantirishning asosini tashkil etadi. Reflektiv ko'nikmalarni rivojlantirish, kasbiy qadriyatlarni shakllantirish, shaxsiy mas'uliyat va innovatsiyalarga tayyorgarlikni rivojlantirish bo'yicha maxsus treninglarni integratsiya qilish tavsiya etiladi.

3. Asosiy amaliy tavsiyalardan biri sifatida "Ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagogik kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish" mavzusidagi maxsus kursni oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimiga joriy etish taklif etiladi. Maxsus kurs malaka oshirish va qayta tayyorlash dasturlari doirasida amalga oshirilishi, leksiya, amaliy mashg'ulotlar, trening va mustaqil mashg'ulotlarni o'z ichiga olishi kerak. Shuningdek, zamonaviy multimedia, masofaviy va modul texnologiyalaridan foydalanishni ham ko'zda tutish zarur, bu esa ta'limning ochiqligini, interaktivligini va individualizatsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

4. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan pedagogik diagnostika tizimlarini joriy etish tavsiya etiladi, ular pedagoglarning kasbiy kompetentlik holatini kompleks baholashga xizmat qiladi. Standartlashtirilgan diagnostik vositalardan foydalanish ta'lim dasturlarining samaradorligini muntazam monitoring qilish, pedagoglarda rivojlanishdagi yetishmovchilik sohalarni o'z vaqtida aniqlash va o'quv kurslarini real ta'lim amaliyoti ehtiyojlariga mosravishda tuzatish imkonini beradi.

5. Pedagoglarni doimiy kasbiy rivojlanishga rag'batlantirish zarur, buning uchun ongli o'z-o'zini o'qitish sharoitlarini yaratish, kasbiy hamjamiyatlarni tashkil etish, murabbiylikni rivojlantirish va ilmiy-tadqiqot loyihalarida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish tavsiya etiladi. Yuqorida ko'rsatilgan tavsiyalarni amalga oshirish pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini qo'llab-quvvatlashning yaxlit tizimini shakllantirishga xizmat qiladi hamda ularni zamonaviy ta'lim transformatsiyasi sharoitida muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatga tayyorlashni ta'minlaydi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ СОЗДАННЫЙ НА ОСНОВЕ
НАУЧНОГО СОВЕТА PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ
ПЕРЕПОДГОТОВКИ И ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ КАДРОВ
СИСТЕМЫ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**ИНСТИТУТ ПЕРЕПОДГОТОВКИ И ПОВЫШЕНИЯ
КВАЛИФИКАЦИИ КАДРОВ СИСТЕМЫ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ
ПРИ МИНИСТЕРСТВЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И
ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

ХАКНАЗАРОВА НИЛУФАР КУРАНБОВНА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ
НЕПРЕРЫВНОГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ
ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ
ОБРАЗОВАНИЯ**

13.00.01 – Теория педагогики. История педагогических учений

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА(DSc) ПО
ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2026

Тема диссертации на соискание степени доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.3.DSc/Ped946.

Диссертация выполнена в Институте переподготовки и повышения квалификации кадров системы высшего образования.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.bimm.uz) и информационно-образовательном портале Ziyonet (www.ziyonet.uz).

Научный консультант: Бегимкулов Узокбой Шовимкулович
доктор педагогических наук, профессор

Официальные оппоненты: Шарипова Дилера Джуманиязовна,
доктор педагогических наук, академик
Абдуллаева Барно Сайфутдиновна
доктор педагогических наук, профессор
Тожибоева Хилола Махмудовна
доктор педагогических наук, профессор

Ведущая организация: Самаркандский государственный университет

Защита диссертации состоится « 30 » 04 2026 года в 14³⁰ часов на заседании разового Научного совета при научном совете PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 при Институте переподготовки и повышения квалификации кадров системы высшего образования по адресу: 100095, город Ташкент, Алмазарский район, улица Зие, дом 3. Тел: (+99871) 203-01-28; факс: (+99871) 202-01-20; e-mail: info@bimm.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института Переподготовки и повышения квалификации кадров системы высшего образования (зарегистрирована за № 32). Адрес: 100095, город Ташкент, Алмазарский район, улица Зие, дом 3. Тел.: (+99871) 203-01-28.

Автореферат диссертации разослан « 15 » 04 2026 года.
(реестр протокола рассылки № 5 от « 15 » 04 2026 года).



Ш.К.Мардонов
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор педагогических наук, профессор

Д.А.Муетафоева
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор педагогических наук (DSc), доцент

Ф.Р.Юликаев
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.п.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Социально-экономические изменения в мире, процессы глобализации и стремительный переход к информационному обществу ставят перед системой образования новые задачи и вызовы. В этих условиях образование должно не только давать качественные современные знания, но и готовить специалистов к непрерывному обучению и повышению квалификации. В связи с этим возрастают требования к профессиональной компетентности педагогических кадров. Совершенствование технологий развития компетентности педагогов в процессе педагогической подготовки после получения высшего образования, обеспечение их готовности к непрерывному профессиональному росту в условиях глобальных инноваций в науке и технике является актуальной задачей.

Одним из приоритетов мировой системы образования и ЮНЕСКО является развитие, постоянное совершенствование и обеспечение условий для постоянного обновления и углубления общих и профессиональных компетенций каждого педагогического работника. Профессия учителя считается высококвалифицированной, мобильной, постоянно требующей непрерывного обучения и основанной на сотрудничестве. В связи с этим основной задачей системы послевузовского образования является подготовка педагогических кадров, обладающих инновационным мышлением и необходимой мотивацией к саморазвитию на протяжении всей жизни³.

Трансформация системы образования и обеспечение профессионального развития педагогических кадров является одним из приоритетных направлений в нашей стране. В контексте образовательной трансформации реализуются комплексные меры по непрерывному профессиональному развитию педагогических кадров. В частности, «Концепцией развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года»⁴ предусмотрено совершенствование нормативно-правовых и учебно-методических основ внедрения систем непрерывного профессионального развития и переподготовки кадров, широкое использование в этой связи возможностей дистанционного обучения, и на основе государственной политики развивается система повышения квалификации и переподготовки педагогических кадров, расширяются возможности дистанционного и гибридного образования, реализуются проекты, направленные на повышение цифровых компетенций и ИТ-грамотности педагогических кадров, расширяются возможности повышения квалификации педагогических кадров в рамках международного опыта и сотрудничества. Эти изменения послужат развитию системы образования Узбекистана в соответствии с

³ Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5789 «О внедрении системы непрерывного повышения квалификации руководящих и педагогических кадров высших образовательных учреждений» от 27 августа 2019 года.

⁴ Концепция Президента Республики Узбекистан № УП-5847 «О развитии системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года.

международными стандартами и повышению профессионального уровня педагогических кадров.

Диссертационная работа служит реализации задач, обозначенных в следующих нормативно-правовых актах Республики Узбекистан: Указах Президента Республики Узбекистан № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года, № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» от 28 января 2022 года, № УП-27 «О Государственной программе по реализации Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы в «Год заботы о личности и качественного образования» от 28 февраля 2023 года, Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-54 «О дополнительных мерах по ускорению реформ в сфере образования» от 2 февраля 2024 года, а также Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 415 «О мерах по эффективной организации системы переподготовки и повышения квалификации руководящих и педагогических кадров высших образовательных учреждений» от 11 июля 2024 года, а также в других нормативно-правовых актах, касающихся данной сферы.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики: I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-нравственном развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Ученые нашей республики У.Ш.Бегимкулов, Я.У.Исмадияров, М.Б.Матназарова, Т.Т.Шоймардонов, Ш.М.Адашбоев и другие провели теоретические и практические исследования по вопросам совершенствования подготовки педагогических кадров, подготовили рекомендации с точки зрения личностно-ориентированного инновационного подхода к организации процессов повышения квалификации педагогических кадров, усовершенствовали модели управления системой высшего педагогического образования и инновационным развитием профессиональной компетентности учителей.

Среди ученых стран СНГ Е.Ю.Бухтиарова, Т.Г.Везиров, А.А.Ковшова, С.М.Зырянова, А.А.Печеркина и другие раскрыли методологические основы непрерывного профессионального развития педагогов, особенности развития профессиональной компетентности в условиях информатизации педагогического образования и подготовили рекомендации по профессиональному развитию педагогических кадров. В.П.Пилявский, Д.Д.Синицина, В.А.Тихонов, Д.С.Шалина, Н.Г.Яковлева и другие исследовали процессы трансформации современного образования, трансформацию системы образования в условиях неопределенности и возросших требований рынка труда, особенности, роль и значение происходящих преобразований для педагогических кадров.

Зарубежные ученые M.Fullan, A.Hargreaves, L.Darling-Hammond, P.Sahlberg, Sugata Mitra и другие, провели исследования, связанные со стратегиями успешных трансформаций образовательных систем, образовательной политикой, развитием преподавателей, изменениями в сфере образования, подготовкой педагогов, а также трансформацией и развитием системы образования.

Связь темы исследования с планами научно-исследовательских работ высшего образовательного учреждения, в котором выполняется работа. Диссертационное исследование выполнено в рамках совместного узбекско-белорусского прикладного проекта «Организация учебной деятельности в системе повышения квалификации на основе дистанционных технологий» ПЛ 4821191576 (2022-2024 гг.), реализованного Институтом переподготовки и повышения квалификации кадров в системе высшего образования.

Цель исследования является разработка предложений и рекомендаций по совершенствованию педагогической системы непрерывного профессионального развития педагогических кадров в условиях образовательной трансформации.

Задачи исследования:

выявить необходимые организационно-педагогические условия непрерывного профессионального развития педагогических кадров и адаптировать их к программам повышения квалификации;

разработать модель развития профессиональной компетентности преподавателей высших образовательных учреждений;

совершенствовать динамическую педагогическую систему, обеспечивающую непрерывное профессиональное развитие педагогов в условиях образовательной трансформации;

разработать диагностический механизм, основанный на нейропедагогическом наблюдении и адаптивном мониторинге, для оценки эффективности педагогической системы;

разработать специальный учебный модуль, развивающий у педагогов креативное мышление, навыки решения проблем и быстрой адаптации.

Объектом исследования стал процесс формирования профессиональной компетентности педагогических кадров в условиях образовательной трансформации. В диссертационном исследовании приняли участие 588 слушателей Института переподготовки и повышения квалификации кадров системы высшего образования, региональных центров переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров при Бухарском государственном университете и Ферганском государственном университете.

Предмет исследования составляют пути совершенствования развития структурных составляющих профессиональной компетентности педагогических кадров в условиях трансформации образования.

Методы исследования. В диссертации использованы такие методы, как анализ научной литературы, экспертная оценка, анкетирование, математико-

статистическая обработка и анализ экспериментальных результатов. В исследовании использованы следующие методы: «Экспертное анкетирование по изучению компонентов профессиональной компетентности современных педагогических кадров в условиях образовательной трансформации», «Анкетирование по изучению профессиональной компетентности педагогических кадров в условиях образовательной трансформации», «Экспертное анкетирование по изучению профессиональной компетентности педагогических кадров в условиях образовательной трансформации».

Научная новизна исследования заключается в следующем:

организационно-педагогические условия непрерывного профессионального развития педагогических кадров определены на основе обеспечения согласованности субъективных и объективных факторов, влияющих на эффективность профессионального роста педагогов, посредством интеграции цифрового и традиционного образования, организации профессионального развития на основе индивидуального и рефлексивного подходов, а также адаптивного управления процессами повышения квалификации;

структурно-функциональная модель, ориентированная на развитие профессиональной компетентности педагогических кадров организаций высшего образования, усовершенствована на основе обеспечения внутренней взаимосвязи содержания компетентностных, когнитивно-метапредметных и аксиологических критериев с вертикальными (этапы развития) и горизонтальными (междисциплинарные и междеятельностные) компонентами, а также их органической связи с результатами профессиональной деятельности;

